



**Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi**

**Ona tili va adabiyot darslarida
STEAM yondashuv hamda sun'iy
intelekt vositalari orqali
o'quvchilarning mantiqiy fikrlash
kompetensiyalarini shakllantirish**

**Bekzod Ergashov Jahongir o'g'li Sirdaryo
viloyati Guliston tumani 21-umumta'lim
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**





REJA:

01

Muammo va dolzarblik

06

SI imkoyatlaridan foydalanish

11

Xavflar va xavfsiz foydalanish

02

Steam — to'liq tushuncha va mohiyat

07

SI lar to'plami

12

Fikrlash kompetensiyalari

03

Ona tili va adabiyot fanlarida fanlararo integratsiya

08

O'quvchilar uchun 10 ta qoida

13

Qiziqarli topshiriqlar

04

Amaliy mashg'ulot (guruhlarda ishlash)

09

Tayyor promptlar

14

Foydali resurslar

05

Amaliy tavsiyalar

10

SI ni oson o'rganish

15

Xulosa

KIRISH

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat bilim olishi emas, balki ularning tahliliy, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Xususan, ona tili va adabiyot darslarida STEAM yondashuv hamda SI dan samarali foydalanish o'quvchilarning fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim didaktik imkoniyatlar yaratadi. STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani ta'minlash o'quvchilarni muammoga yechim topishga, mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga undaydi. SI esa matnlarni tahlil qilish, g'oya yaratish, solishtirish va baholash kabi murakkab intellektual jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois zamonaviy ta'limda, dars jarayonlarida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi.

01 | MUAMMO VA DOLZARBLIK

73 %

O'quvchilar darsda passiv tinglaydi

12 %

O'quvchilar mustaqil fikr bildiradi

89 %

O'qituvchilar yangi uslub kerak deydi

5x

SI qo'llanilganda o'zlashtirish oshadi

O'quvchi savolga javob topa oladi, lekin savol bera olmaydi — bu ta'limdagi asosiy muammo

✗ HOZIRGI TA'LIMDAGI MUAMMOLAR

- ⚠ Yodlashga asoslangan passiv ta'lim tizimi
- ⚠ Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yetishmasligi
- ⚠ Fanlararo integratsiya yo'qligi
- ⚠ Faqatgina o'qituvchining markazda bo'lishi
- ⚠ Zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslik
- ⚠ Baholashda faqat bilimni tekshirish

☑ STEAM va SI BERADIGAN YECHIMLAR

- ✓ Faol, kashfiyotga asoslangan ta'lim
- ✓ Chuqur tafakkur
- ✓ Fanlar bilan integratsiya
- ✓ O'quvchi markazda bo'lishi
- ✓ SI vositalar bilan boyitilgan darslar
- ✓ Kompetensiyaga asoslangan baholash

02 | STEAM — TO‘LIQ TUSHUNCHA VA MOHIYAT



S

Science

Fan

Biologiya, kimyo,
fizika, ekologiya



T

Technology

Texnologiya

Raqamli vositalar,
AI, media



E

Engineering

Muhandislik

Loyihalash,
konstruksiya, hal
qilish



A

Art + Humanities

San'at + Gumanitar

Adabiyot, musiqa,
tasviriy san'at



M

Mathematics

Matematika

Mantiq, statistika,
grafik tahlil

💡 **STEAM — bu faqat STEM ga san'at qo'shish emas! Bu — fanlarni bir-biri bilan bog'lab, real hayot masalalarini kompleks yechish yondashuvi.**

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA STEAM IMKONIYATLARI

Ona tili va adabiyot darslarida **STEAM yondashuvi** o'quvchilarning bilimini real hayot bilan bog'lash, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur yondashuv an'anaviy darslardan farqli ravishda faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchini faol izlanishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va yechim ishlab chiqishga yo'naltiradi.

Avvalo, STEAM yondashuvi ona tili va adabiyot fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Masalan, badiiy matnlar asosida ijtimoiy, ekologik yoki texnologik muammolarni muhokama qilish, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o'quvchilar fanlararo bog'liqlikni anglay boshlaydi. Bu jarayonda o'quvchilar matndan dalil keltirish, sabab-oqibatlarini aniqlash va o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



STEAM imkoniyatlari ona tili darslarida nutq madaniyati va yozma savodxonlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar turli mavzularda loyiha ishlari tayyorlash, prezentatsiyalar tuzish, infografik matnlar yaratish orqali axborotni tanlash, qayta ishlash va mantiqiy tartibga solishni o'rganadi. Bu esa ularda tanqidiy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.



Adabiyot darslarida esa STEAM yondashuvi badiiy asarlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, asar voqealari asosida ssenariy tuzish, sahna ko'rinishlari yaratish, qahramonlar xarakterini grafik va vizual vositalar orqali ifodalash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Natijada ular faqat matnни o'qibgina qolmay, uni chuqur anglaydi, tahlil qiladi va qayta talqin etadi.

03 | ONA TILI VA ADABIYOT FANLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYA

Adabiyot + Tarix

“O‘tgan kunlar” va XIX asr Turkiston hayoti

S — tarixiy hujjatlar tahlili; A — she‘riy parchalar; STEAM loyiha: davr xaritasi

“Asardagi voqealar bugungi O‘zbekistonga qanday ta‘sir qilgan?”

Adabiyot + Biologiya

Tabiat tasvirlari she‘riyatda (Cho‘lpon, Hamza)

S — ekotizm va o‘simliklar; A — she‘riy metaforalar; loyiha: botanik she‘riy albom

“Shoir tabiatni nima uchun insonga o‘xshatadi? Bu ilmiy jihatdan to‘g‘rimi?”

Adabiyot + Matematika

She‘r tuzilishi: ritm, vazn, simmetriya

M — aruz matematikasi, hisoblash; A — she‘r yaratish; grafik tahlil

“She‘rdagi tartib va tartibsizlik qayerda? Bu muallifning niyatimi?”

Adabiyot + Musiqa

Qo‘shiqlar she‘riyati: Bobur, Mashrab g‘azallari

T — audio yozuv; A — g‘azal musiqaga solish; tahlil: vazn va kuy uyg‘unligi

“Musiqa so‘zning ma‘nosini kuchaytiradimi yoki o‘zgartiradimi?”

Adabiyot + Informatika

Raqamli nashr va blog yaratish

T — veb-sayt, blog; A — matn yaratish; prezentatsiya; SI bilan ishlash

“Raqamli yozuv qog‘oz yozuvdan farq qiladimi? Nima uchun?”

Adabiyot + Psixologiya

Personaj ichki dunyosi: motivatsiya tahlili

S — psixologiya nazariyalari ; A — dramatik monolog; tahlil jadvali

“Kumush nima uchun shunday harakat qildi? Bugungi inson ham shunday qilarmidi?”

 **TARIX**

Davr ruhi tahlil, tarixiy kontekst

 **BIOLOGIYA**

Tabiat tasvirlari, ekologik mavzular

 **GEOGRAFIYA**

Manzara tasviri, o'lka adabiyoti

 **MUSIQA**

Ritm, ohang, she'r musiqasi

**ONA TILI
VA
ADABIYOT** **RASM**

Asarni vizual tasvirlash

 **MATEMATIKA**

Statistika, grafik, simmetiya

 **INFORMATIKA**

Raqamli va SI vositalar

 **PSIXOLOGIYA**

Personaj tahlili, his-tuyg'u

04 | AMALIY MASHG'ULOT — GURUHDA ISHLASH

 Vaqt: 20 daqiqa | Guruhlar: 3-4 kishi | Natija: Guruh prezentatsiyasi (3 daqiqa)

1-GURUH

“Na’matak” she’ri tahlili

- 1 She’rni o’qing va lirik qahramon kayfiyatini aniqlang
- 2 SI: Muallif qanday holatni tasvirlamoqchi? savoli ustida ishleng
- 3 STEAM-A: She’rga mos rassom ko’zi bilan tasvir yarating
- 4 Taqdimot: SI savoli bilan guruhga o’z tahlilingizni tushuntiring

2-GURUH

Personaj tahlili (istalgan asar)

- 1 Personaj xususiyatlarini sxemasiga joylang
- 2 SI: Nima uchun u shunday qildi' — 3 xil javob toping
- 3 STEAM-S: Personaj harakatlarini real hayot bilan bog’lang
- 4 Taqdimot: fikrni dalil bilan asoslang

3-GURUH

Muammo-yechim loyihasi

- 1 Adabiy asardan ijtimoiy muammoni toping
- 2 STEAM-E: Muammoni grafik tarzda tasvirlang
- 3 SI: Auditoriyaga 3 ta muammoli savol tayyorlang
- 4 Taqdimot: yechim taklif qiling

05 | O'QITUVCHIGA AMALIY TAVSIYALAR

NIMA QILISH KERAK

- 1 Har bir darsda kamida 2-3 ta muammoli savol rejalashtiring
- 2 STEAM elementini dars maqsadiga bog'lang
- 3 O'quvchiga erkinlik muhitini yarating
- 4 Savol berish uchun 5-10 soniya kutish vaqtini bering (wait time)
- 5 Guruh ishlarini rubrika orqali shaffof baholang
- 6 Dars oxirida refleksiya savoli bering: Bugun qanday yangi bilim o'rgandingiz?'

NIMA QILMASLIK KERAK

O'quvchini noto'g'ri javob uchun uyaltirmang


STEAM ni faqat texnologiya deb tushunmang

Muammoli savol va suhbatni so'roq/imtihonga aylantirmang

Barcha o'quvchidan bir xil darajada javob kutmang

06 | SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Ona tili va adabiyot darslarida **sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish** ta'lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday vositalar o'quvchilarning matn bilan ishlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida xizmat qiladi.



Avvalo, sun'iy intellekt vositalari yordamida o'quvchilar badiiy va ilmiy matnlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, matn mazmunini qisqartirish, asosiy g'oyani aniqlash, syujet va obrazlar tahlilini tuzish jarayonlari avtomatlashtirilgan yordam orqali bajariladi. Bu esa o'quvchilarga vaqtni tejash bilan birga, asosiy e'tiborni tahliliy va mantiqiy fikrlashga qaratish imkonini yaratadi.

07 | SI VOSITALAR TO'LAMI

 **ChatGPT**

Bepul

chat.openai.com

Matn yaratish, tahlil, savol generatsiyasi, grammatika

Bloom: 3-6

 **Claude AI**

Bepul

claude.ai

Chuqur matn tahlili, insho yozish yordami, SI savollari

Bloom: 4-6

 **Canva AI**

Bepul

canva.com

Vizual plakat, infografika, she'riy albom dizayni

Bloom: 5-6

 **NotebookLM**

Bepul

notebooklm.google

PDF yuklash, matn bilan suhbat, tahlil va xulosa

Bloom: 4-5

 **Kahoot AI**

Bepul

kahoot.com

O'yin-test, leksika o'rganish, grammatika mashqlari

Bloom: 1-3

 **Quizlet**

Bepul

quizlet.com

So'z kartochkalari, lug'at, repetitsion metodologiya

Bloom: 1-2

 **ElevenLabs**

Chek.

elevenlabs.io

She'rni ovozli o'qish, talaffuz tahlili, audio kitob

Bloom: 2-4

 **Diffit**

Bepul

diffit.me

Matnni darajaga moslash, soddalashtirilgan adaptatsiya

Bloom: 2-3

 **MagicSchool**

Bepul

magicschool.ai

Dars rejasi, topshiriqlar, rubrikalar avtomatik yaratish

Bloom: 4-6

 **Wordtune**

Bepul

wordtune.com

Matnni qayta ifodalash, uslub yaxshilash, sinonimlar

Bloom: 3-5

 **Grammarly**

Bepul

grammarly.com

Imlo, tinish belgilari, matn sifatini tekshirish

Bloom: 1-2

 **Padlet**

Bepul

padlet.com

Guruhda kollaborativ yozuv, fikr xaritasi, muhokama

Bloom: 3-5

08 | O'QUVCHILAR UCHUN: SI DAN TO'G'RI FOYDALANISH — 10 QOIDA



01 Al yozmasin — siz yozing

SI faqat g'oya, yo'l va misol uchun. Yakuniy matn — sizniki bo'lsin



02 Tekshirib ko'ring

SI bergan har bir ma'lumotni darslik yoki lug'at orqali tasdiqlang



03 Savolni to'g'ri so'rang

Qanchalik aniq savol bersangiz, shunchalik yaxshi javob olasiz



04 O'z so'zingizda yozing

SI javobini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirmang — o'z uslubingizda qayta yozing



05 Shaxsiy ma'lumot bermang

Ism, maktab, manzilingizni hech qachon SI ga yozmang



06 Rozi bo'lmasangiz ayting

SI noto'g'ri javob berganda: Bu ma'lumot to'g'ri emas deb bildiring



07 SI fikri — bir fikr

SI ning fikrini bitta nuqtai nazar sifatida qabul qiling, mutlaq haqiqat emas



08 Mualliflikni ko'rsating

SI yordamida yaratgan ishingizda "SI yordamida yaratildi" deb yozing



09 Bilim olish uchun ishlating

SI jarayon uchun — javob olish uchun emas. Nima? emas, Nima uchun? deb so'rang



10 O'qituvchingizga ayting

SI bilan qiyin yoki g'alati narsa uchrasa, o'qituvchingiz bilan muhokama qiling

09 | 10 TA TAYYOR PROMPT — ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHISI UCHUN

GRAMMATIKA

1. 10 ta gap ber, har birida 1 ta morfologik xato qil, o'quvchilar tuzatsin
2. Ot, sifat, fe'l kategoriyalarini rang bilan belgilang va tushuntiring

TAHLIL

- Qahramon
1. portretini 5 kategoriyada: tashqi, ichki, nutq, harakat, munosabatda tasvirla
 2. Asarning g'oyaviy mazmunini 3 ta turli talqin bilan ifodalab ber

YOZUV

- Mening inshomni
1. o'qib, argument kuchi va dalillar sifatini baholang (1-5 ball, izoh bilan)
 2. Ushbu paragrafni 3 xil uslubda qayta yoz: rasmiy, badiiy, sodda

NUTQ

- 5 daqiqalik nutq
1. uchun: tezis + 3 kuchli argument + ta'sirchan xulosa rejasi ber
 2. "Kitob o'qish muhim" mavzusida debat uchun PRO va CONTRA argumentlar (5 tadan)

LEKSIKA

- "Baxt" so'zining
1. sinonim va antonimlarini, har birining nozikligini tushuntir
 2. 20 ta frazeologizm: ma'nosi va hozirgi hayotda qo'llanish holati bilan

10 | O'QITUVCHI UCHUN SI BOSHLASH QO'LLANMASI

1-HAFTA *Tanishish*

- 1 ChatGPT va Claude ga ro'yxatdan o'ting (bepul)
- 2 Bitta mavzu uchun 5 ta mashq generatsiya qiling
- 3 Darslikdan 1 matnni SI bilan tahlil qiling

2-HAFTA *Birinchi dars*

- 1 Kahoot AI bilan bitta test yarating
- 2 Sinfda o'ynab, natijani kuzating
- 3 O'quvchilar reaksiyasini yozib qo'ying

3-HAFTA *SI + O'quvchi*

- 1 O'quvchilarga ChatGPT ni ko'rsating
- 2 Birgalikda she'r tahlili qiling
- 3 Har o'quvchi SI bilan 1 ta topshiriq bajarsin

4-HAFTA *To'liq dars*

- 1 SI bilan bitta to'liq dars
- 2 O'quvchi mahsulotini baholash
- 3 O'z-o'zini tahlil: nima ishladi, nima yo'q?

2-OY *Tizim*

- 1 Har haftaga SI topshiriq rejalashtiring
- 2 Rubrika bilan baholashni joriy qiling
- 3 Hamkasblar bilan tajriba ulashing

3-OY *Ekspert*

- 1 Seminar-trening o'ting va tajriba ulashing
- 2 O'zingizning prompt kutubxonangizni tuzing
- 3 O'quvchilar SI loyihasini taqdim etsin

11 | SI ETIKASI, XAVFLAR VA XAVFSIZ FOYDALANISH

XAVFLAR VA MUAMMOLAR

“Ko‘chirmakashlik” xavfi

O'quvchi SI ni yozib beradi, o'zi yozmaydi. Yechim: Jarayonni kuzating, qoralama talab qiling

Noto'g'ri ma'lumot

SI gohida noto'g'ri imlo yoki grammatik qoida berishi mumkin. Yechim: Doim rasmiy manba bilan tekshiring

SI ga qaramlik

O'quvchi mustaqil fikrlashni to'xtatadi. Yechim: SI dan foydalanishni cheklang, jarayonni asoslang

Ma'lumot xavfsizligi

Shaxsiy ma'lumot, o'quvchi ism-familiyasini SI ga bermang.

Mualliflik huquqi

SI generatsiyali matn va rasmlarda mualliflik masalasi. O'quvchilarga bildirilishi shart

XAVFSIZ FOYDALANISH QOIDALARI

SI — yordamchi, muallifmas

O'quvchi doim o'zi yaratuvchi bo'lishi kerak. SI faqat yo'l ko'rsatadi

Tekshiring va tasdiqlang

SI javobini doim rasmiy manba (lug'at, darslik) bilan taqqoslang

Jarayonni hujjatlashtiring

O'quvchidan qoralama + SI bilan ishlash jarayonini taqdim etishni talab qiling

Sinf qoidalarini belgilang

SI dan qachon, qanday va qancha foydalanish mumkinligini aniq qoidalar bilan belgilang

Digital savodxonlik


O'quvchilarga SI ni tanqidiy baholashni o'rgating: 'Bu ma'lumot to'g'rimi?'

Yuqori darajadagi fikrlash kompetensiyalari — bu o‘quvchining tayyor bilimlarni eslab qolish bilan cheklanmay, balki ularni tahlil qilish, taqqoslash, baholash, umumlashtirish va yangi g‘oyalar yaratish jarayonida mustaqil qo‘llay olish qobiliyatidir. Bunday kompetensiyalar zamonaviy ta‘limning muhim natijasi bo‘lib, o‘quvchini real hayot muammolariga ongli va mas‘uliyatli yondashishga tayyorlaydi.

12 | FIKRLASH KOMPETENSIYALARI — BAHOLASH RUBRIKALARI

KOMPETENSIYA	1 — Boshlang'ich	2 — Rivojlanayotgan	3 — Shakllangan	4 — Yuksak daraja
Tanqidiy fikrlash	Faqat yodlaydi	Ba'zan tahlil qiladi	Dalil bilan fikr	Mustaqil xulosa, zid fikrni ham ko'radi
SI — Savol berish	Savol bermaydi	Yuzaki savol	Chuqur, ochiq savol	Meta-savol beradi, boshqalarni ham fikrlatadi
STEAM integratsiya	Bog'lamaydi	Yuzaki bog'aydi	Mustaqil bog'laydi	Ijodiy mahsulot yaratadi, fanlar sintezi
SI vositalardan foydalanish	Ishlatmaydi	Passiv ishlatadi	Maqsadli ishlatadi	SI ni tanqidiy baholaydi, cheklovlarini biladi
Ijodiy yozuv	Nusxa ko'chiradi	O'zgartiradi	Original yozadi	Boshqalarga ilhomlantiruvchi asar yaratadi
Hamkorlik va muloqot	Jim o'tiradi	Taklif qilinsa gapiradi	Faol ishtirok	Guruhni yo'naltiradi, boshqalarni eshitadi

STEAM va sun'iy intellekt asosida darsni tashkil etish



13 | QIZIQARLI TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI (20 TA TEXNIKA)

1. Personaj Twitter'i

Qahramon nomidan 5 ta tweet yozing (280 belgi)

2. She'r × Grafik

She'rni infografika shaklida ifodalang

3. Asarni emoji bilan

Syujetni faqat emoji orqali hikoya qiling

4. Qahramon rezume

Asar qahramoniga ish rezyume yozing

5. Boshqa davr ending

Asarning zamonaviy versiya yakunini yozing

6. 6 so'zda hikoya

Heminguey usulida: 6 so'z bilan asar mohiyati

7. Maktublar almashinuvi

2 qahramon o'rtasida 3 ta maktub yozing

8. Asarning treyleri

Asarni 30 soniyalik kino treyleri sifatida yozing

9. Zid nuqtai nazar

Salbiy qahramonni himoya qiling (advokatlik)

10. So'z buluti

Asarning kalit so'zlaridan badiiy so'z buluti yarating

11. Muzey eksponati

Asar davri buyumini tushuntiruvchi muzey kartochkasi

12. Mashhur qo'shiq remix

Mashhur kuy ostida asarni she'r-qo'shiq qiling

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

Muammoni aniqlash va tahliliy fikrlash ko'nikmasi

Axborotni izlash, saralash va tanqidiy baholash malakasi

O'z fikrini asoslab bayon qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasi

Ijodiy yondashuv va yangi g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati

Muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalari

Raqamli muhitda ishlash va axborot savodxonligi

Mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini baholash malakasi

14 | FOYDALI RESURSLAR, KITOBLAR VA AI MANZILLAR

NAZARIY ASOSLAR

- Bloom B.S. — Taxonomy of Educational Objectives (1956)
- Paul R. & Elder L. — Critical Thinking (2006)
- Wiggins G. — Understanding by Design (1998)
- Yakman G. — STEAM Education Framework (2008)
- Vygotsky L. — Zone of Proximal Development

DARS VOSITALARI

- Padlet: padlet.com (kollaborativ doska)
- Miro: miro.com (fikir xaritasi, Fishbone)
- Quizlet: quizlet.com (so'z boyligi o'yinlari)
- ElevenLabs: elevenlabs.io (AI ovoz)
- Mentimeter: mentimeter.com (real vaqt so'rovnoma)

AI VOSITALAR (BEPUL)



- ChatGPT: chat.openai.com (savollar, tahlil, dars rejasi)
- Claude AI: claude.ai (chuqur tahlil, yozuv yordamchi)
- Canva AI: canva.com (vizual plakat, prezentatsiya)
- Google NotebookLM: notebooklm.google.com
- Kahoot AI: kahoot.com (gamification, test)

O'ZBEK RESURSLARI

- Ziyonet.uz — o'quv materiallar bazasi
- Edu.uz — raqamli ta'lim platformasi
- YouTube: 'Innovatsion ta'lim' kanallari
- TelegramBot: @OnailiAdabiyot_uz
- Maktab.uz — interaktiv darslar

15 | XULOSA VA ASOSIY FIKRLAR

O'quvchi fikrlaydi, savol beradi, yaratadi —demak u o'rganadi.

-  STEAM adabiyotni hayotga bog'laydi — faqat matn emas, tafakkur vositasi
-  SI o'quvchini savolga o'rgatadi — bu kelajak uchun eng zarur ko'nikma

XULOSA



Ona tili va adabiyot darslarida STEAM yondashuvi hamda sun'iy intellekt vositalarini uyg'un qo'llash o'quvchilarda tahlil qilish, muammoni yechish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan va g'oya yaratuvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada dars jarayoni zamonaviy, qiziqarli va amaliy yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning raqamli savodxonligi, muloqot va hamkorlik ko'nikmalari ham mustahkamlanadi.

E'tiboringiz uchun rahmat!